Dastlabki ma’lumotlar

# 2020– yilning yanvar– mart oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2020– yilning yanvar – mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 829,4 mlrd. so‘mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 104,3 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 737,5 mlrd. so‘mni (104,1 %), o‘rmon xo‘jaligi – 74,8 mlrd. so‘mni (101,5 %), baliq xo‘jaligi – 17,1 mlrd. so‘mni (129,8 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasining ulushi 3,3 % ni tashkil etdi.




**829,4** — Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m

01 — **737,5** — Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

02 — **74,8** — O‘rmon xo‘jaligi

03 — **17,1** — Baliq xo‘jaligi

## Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o’sish sur’ati




## Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



2020– yilning yanvar – mart yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 88,9 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 9,0 % i – o‘rmon xo‘jaligi, 2,1 % i – baliq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.

## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi




2020– yilning yanvar – mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Amudaryo (153 mlrd. so‘m) va Beruniy (112 mlrd. so‘m) tumanlariga qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Nukus shahri (8 mlrd. so‘m), Mo‘ynoq tumani (11 mlrd. so‘m) va Bo‘zatov tumani (21 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi ko‘rsatkichidan (104,3 %) yuqori o‘sish sur’atlari Beruniy tumani (108,8 %), Amudaryo (108,1 %) va Qo‘ng‘irot (107,6 %) tumanlarida kuzatildi. Qonliko‘l tumani (100,7 %), Ellikqal'a (100,9 %), Qorao‘zak (101,0 %), Nukus (101,5 %), To‘rtko‘l va Kegeyli (101,7 %), Taxtako‘pir (101,9 %) tumanlarida esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.

# Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2020– yilning yanvar – mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 732,7 mlrd. so‘mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 104,1 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 66,5 mlrd. so‘mni (105,5 %), chorvachilik mahsulotlari – 666,2 mlrd. so‘mni (104,0 %) tashkil qildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

9,1 %
Dehqonchilik mahsulotlari



90,9 %
Chorvachilik mahsulotlari

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 86,0 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 12,1 % i – fermer xo‘jaliklariga, 1,9 % i – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)




2020-yilning yanvar – mart oylari yakuniga ko‘ra ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Amudaryo tumanida (30,3 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Qorao‘zak va Kegeyli tumanida (98,4 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Nukus shahrida (16,7 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Kegeyli tumanida (1,3 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Amudaryo tumanida (65,8 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Qorao‘zak va Chimboy tumanida (0,2 %) qayd etildi.

## Dehqonchilik

2020– yilning yanvar – mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 66,5 mlrd. so‘mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 105,5 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 9,1 % ni tashkil qildi.

## Sabzavotlar

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 608 t. sabzavotlar (2019– yilning yanvar – martiga nisbatan 25,1 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 60,0 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna



## Chorvachilik



2020– yilning yanvar – mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 666,2 mlrd. so‘mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 90,9 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2020– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 15,1 ming t. go‘sht (2019– yilning yanvar – martiga nisbatan 3,4 % ga ko‘p), 49,8 ming t. sut (5,5 % ga ko‘p), 77,7 mln. dona tuxum (3,8 % ga ko‘p), 24,9 ming dona qorako‘l teri (0,3 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi va 1 093,6 t. baliq (134,4 % ga ko‘p) ovlandi.

# Go‘sht *(tirik vaznda)*

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 15,1 ming t. go‘sht (2019– yilning yanvar – martiga nisbatan 3,4 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Go‘sht ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



## Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha go‘sht (tirik *vaznda)* yetishtirish hajmi, tonna



# Sut

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 49,8 ming t. sut (2019– yilning yanvar – martiga nisbatan 5,5 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 91,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha ishlab chiqarilgan sut hajmi, tonna



# Tuxum

**Hajmi, mln. dona**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 77,7 mln. dona tuxum (2019– yilning yanvar – martiga nisbatan 3,8 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 91,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.



## Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha olingan tuxum hajmi, ming dona



# Baliq

### Hajmi, t.




### O‘sish sur’ati




### Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 1 093,6 t. (2019– yilning yanvar – martiga nisbatan 34,4 % ga ko‘p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 54,8 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelganini ta‘kidlash lozim.



## Qoraqalpogʻiston Respublikasi boʻyicha ovlangan baliq hajmi, tonna



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2020– yining 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,8 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 94,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 0,8 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumyiy sonidan 11,1 % i fermer xo‘jaliklariga, 87,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 1,4 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g’ri keladi, otlar umumiy sonidan 20,1 % i fermer xo‘jaliklariga, 78,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 1,7 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 7,1 % i fermer xo‘jaliklariga, 86,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 6,4 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 101,9 ming taga yetdi.

2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 9,4 ming taga (0,9 %) ko‘paydi.

## Yirik shoxli qoramollar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh soning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 94,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzaitildi.



## Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh



2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 318,2 ming taga yetdi.

2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 2,7 ming taga (0,9 %) ko‘paydi.

## Sigirlar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh soning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 93,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzaitildi.



# Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 1 107,2 ming taga yetdi.

2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 24,6 ming taga (2,3 %) ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh soning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 87,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 24 502 taga yetdi.

2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 836 taga (3,5 %) ko‘paydi.

## Otlar

**Soni, bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh soning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 78,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzaitildi.



## Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh



2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 4 421,4 ming taga yetdi.

2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 108,7 ming taga (2,5 %) ko‘paydi.

## Parrandalar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh soning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 86,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



# Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh




Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘limi
- 61-222-76-07
- 61-224-93-11